

O'ZBEKISTONDA TURAR-JOY QURILISHI TARIXI 1991-2020-YILLAR (SURXONDARYO MISOLIDA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7820664>

Jonqobilov Jo'rabek Bahrom o'g'li

Termiz Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi II bosqich magistranti.

Annotatsiya.

Ushbu maqolada O'zbekistonda yuz berayotgan siyosiy va ma'naviy rivojlanish, jamiyatni demokratlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyot mamlakatimizdagi shaharsozlik sohasida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarini jadal rivojlantirish imkoniyatini berayotganligi, O'zbekistonda so'nggi yillarda barcha sohalar kabi qurilish sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilayotganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar.

O'zbekiston, o'zgarishlar, imkoniyatar, rivojlanish, turar-joy, qurilish, inshoot, e'tibor, bunyodkorlik ishlari.

Turar joy (boshqa nomlari: uy-joy, makon, istiqomatgoh) deb odam yoki boshqa hayvonlar istiqomat qiladigan inshootga aytiladi.[1][2] Turar joylar xilma-xil bo'ladi: oddiy kulbadan tortib murakkab qurilmalar tizimigacha.[3][4] Turar joyda doimiy yashovchilar bu inshootni uy deyishadi. Uyda istiqomat qiluvchi ijtimoiy birlikka uydagilar deyiladi, bu birlik odatda oila, ayrim hollarda esa har qanday boshqa ijtimoiy guruh, tashkilot yoki yolg'iz kimsalar bo'lishi mumkin.

Turar joy – yashash maskani, boshpana joy, uyjoy binolari. Oila istiqomat qiladigan uy, oilaning maishiy hayoti o'tadigan muhit. Turar joy ibtidoiy davrlardayoq taom tayyorlash, libos kiyish qatorida paydo bo'lgan. Turar joylar me'morliqsa eng ko'p tarqalgan inshoot turi bo'lib, boshqa turdagi inshootlarning shakllanishi va rivojlanishini ko'p jihatdan belgilab bergan. Turar joyning tashki va ichki shakllari, turlari va ko'rinishi jihatidan xilmaxilligi iklim, tabiiy geografik sharoit takrzosi, ijtimoiy munosabatlar xususiyati, iqtisodiy moddiy-turmush darajasi, madaniy va milliy an'analarga bog'liq holda rivojlanib, murakkablashib borgan. Turar joyning oddiy turlari qad. tosh davridan ma'lum. Turar joylar asrlar davomida tog' g'orlari, tabiatdagi oddiy boshpana bostirmalardan boshlab, zamonaviy ko'p qavatli uylargacha murakkab tarakqiyot jarayonini bosib o'tgan

O'zbekistonda yuz berayotgan siyosiy va ma'naviy rivojlanish, jamiyatni demokratlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyot mamlakatimizdagi shaharsozlik sohasida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarini jadal rivojlantirish imkoniyatini berdi. Shu bilan birga shaharsozlik sohasi ushbu zamonaviy bosqichda hududiy tizimlarning yangi masshtablari, rejalashtirish va kelajak istiqbollarning yangi loyihaviy muddatlari, shaharlarni loyihalash va qurishning yangi muammolari bilan yuzma-yuz keldi. Bu esa yosh mutaxassislar - shaharsozlarni tayyorlashga yangicha yondashuvni talab etadi. Ular shaharsozlik sohasida barcha yutuq va kamchiliklarni o'rganib chiqib, oldingi tajribalar asosida malakaviy ko'nikma va mahoratga ega bo'lishlari lozim. Bu o'z navbatida bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanib borayotgan O'zbekistonning yangi shaharsozlik strategiyasini hayotga tatbiq etish mezonidir.

Yashash muhitini shakllantirish butun shaharsozlik muammolari majmuasini hal etishga bog'liq. Bu muammolar o'zida shahar va uning yashash hududi (turar-joy tumanlari va kichik tumanlar) rejaviy strukturasi mukammallashtirish, turar-joy va jamoat binolari, savdo va xizmat ko'rsatuvchi markazlar loyihalarini zamonaviy va kelajak talablariga moslashtirgan holda loyihalashni aks ettiradi. 3 Shahar muhitiga rivojlanishning obyektiv qonunlariga bo'ysunadigan yangicha nigoh va munosabat talab etila boshlandi. Natijada bir qator hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari ishlab chiqildi va qabul qilindi hamda ular shaharsozlik sohasidagi davlat siyosatini mukammallashtirishga qaratilgan, ular faoliyatini davlat ta'minlab beruvchi ijtimoiy-ta'minlangan bloklari - bolalar maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, sog'liqni saqlash muassasalari aniq ajratib ko'rsatilgan.

Turar-joy tumanini va kichik tumanni loyihalashdan oldin ushbu tuman joylashgan shaharda uning tutgan o'rnini va ahamiyatini aniqlab olish lozim. Bu esa, o'z navbatida, ushbu shahar va umuman shaharlar to'g'risida tushunchaga ega bolishni, ularning xususiyatlarini o'rganib chiqishni talab etadi. Yangi shaharlar yaratish, shakllangan shaharlarni qayta qurish va yangilash bo'yicha turli shaharsozlik faoliyatining umumiy asosi bu - zamonaviy shaharning arxitekturaviy-rejaviy strukturasi shakllantirish bo'yicha yagona tasavurga ega bo'lisdir.

Surxondaryo viloyati - O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1941 yil 6 martda tashkil etilgan (1925 yil 29 iyundan Surxondaryo okrugi bo'lgan). 1960 yil 25 yanvarda Qashqadaryo viloyati bilan qo'shilgan. 1964 yil 7 fevralda qaytadan tashkil qilindi. Respublikaning janubiy-sharqida, Surxon-Sherobod vodiysida

joylashgan. Janubdan Amudaryo bo'ylab Afg'oniston, shimol, shimol-sharq va sharqdan Tojikiston, janub-g'arbdan Turkmaniston, shimol-g'arbdan Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh.

Hududi 20,1 ming km². Surxondaryo viloyatining tarkibida viloyatga bo'ysinuvchi 14 tuman (Angor, Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Muzrabot, Oltinsoy, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Shurchi, Qiziriq Qumqo'rg'on), 8 ta tumanga bo'ysinuvchi shaharlar (Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Termiz, Sharg'un, Sherobod, Sho'rchi, Qumqurg'on), 7 ta shaharcha (Angor, Do'stlik, Kakaydi, Sariosiyo, Sariq, Elbayon, Xurriyat), 114 qishloq fuqarolar yig'ini, 698 ta mahalla fuqarolar yig'ini va 847 ta qishloq aholi punktlari bor. Markazi - Termiz shahri.

Surxondaryo viloyati reliefi tog' va tekisliklardan iborat, shimoldan janubga qiyalanib va kengayib boradi. Tog'lar dan oqib tushadigan ko'pdan-ko'p daryo va soylar dara hosil qilgan. Surxon daryo va Sherobodaryo oqib o'tadigan tekislik shimoliy, g'arb va sharqdan baland Hisor tizmasi (eng baland joyi 4643 m) va uning tarmoqlari (Boysuntog', Ko'hitang tog', Bobotog') bilan o'ralgan.

Tekislik qismining iqlimi quruq subtropik. Yozi jazirama issiq va uzoq, qishi iliq va qisqa. Yillik o'rtacha temperaturasi 16-180 S. Iyul oyining o'rtacha temperaturasi 28-32, yanvarniki 2,8-3,6. O'zbekistonda eng issiq temperatura ham shu viloyat hududida kuzatilgan. (1914 yil 21 iyunda Termizda 49,50 S issiq bo'lgan).

Sir emaski, O'zbekistonda so'nggi yillarda barcha sohalar kabi qurilish sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Tizimni yanada takomillashtirishga qaratilgan hukumat va davlat rahbarining farmon hamda qarorlari, qabul qilingan davlat dasturlari, ular ijrosini ta'minlash, tarmoqda islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan tadbirlar natijada bunyodkorlik ko'lamlari tobora kengayib bormoqda.

Biroq, qurilish sohasidagi yangi davrning boshlanishi, tizimdagi muammolarni aniqlash, tan olish va ochiqdash, ayniqsa, ularni yechish oson kechgani yo'q. 2017-2019 yillar va 2020 yilning shu kuniga qadar qurilish sohasini tartibga soluvchi jami 40 ga yaqin qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi: 2017 - 4 ta, 2018 yilda - 13 ta, 2019 yilda - 10 ta va 2020 yilning shu kunigacha 10 dan ortiq. Ushbu qaror va farmonlar tizimda yillar davomida saqlanib qolgan muammolarni tubdan isloh qilishga qaratildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 mayida PQ-2936-son O'zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, Davlat

arxitektura va qurilish qo'mitasi tarkibiy tuzilmasi tubdan o'zgartirildi va yangi vazifalar qo'yildi. Qo'mitaning hududiy bo'linmalari qo'shimcha shtat birliklari bilan kengaytirildi

Yillar davomida yig'ilib qolgan ushbu muammolar va yo'l qo'yilgan sustkashliklarni bartaraf etish maqsadida davlat rahbari farmoni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 apreldagi «Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5392-son farmoniga muvofiq Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi negizida O'zbekiston Qurilish vazirligi tashkil etildi. Natijada 2019 yil yakuni bo'yicha Respublika bo'yicha foydalanishga topshirilgan qurilish hajmi 15,5 mln. kvadrat metrni tashkil qildi. 2017 va 2018 yillar uchun ushbu ko'rsatkich mos ravishda 11,5 va 13,4, 15,5 mln. kvadrat metrni tashkil qilgan edi.

Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kirib keldi va "Shaffof qurilish" axborot tizimi ishga tushdi. Natijada:

- qurilish sohasida axborot-texnologiyalar rivojlantirish Markazi tashkil etildi;
- yuridik va jismoniy shaxslarga keng foydalanish imkonini beruvchi "O'zbekiston Respublikasi davlat shaharsozlik kadastri" geoaxborot tizimi joriy qilindi;

- qurilish-montaj ishlarida tizimli nazorat o'rnatilib, qurilishning barcha bosqichlarida nazorat qilishning aniq mexanizmlari va ijro hujjatlarini yuritishning elektron onlayn tizimi yaratildi;

- shaharsozlik hujjatlari ekspertizasini elektron hujjatlar almashinuvi orqali bosqichma-bosqich amalga oshirish tizimi joriy etildi;

Keyingi yillarda sohani isloh qilish, korxonalar samaradorligi va salohiyatini oshirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi. Tarmoqdagi har bir korxonada faoliyati tanqidiy tahlil etilib, mahsulotlar sifatini oshirish, energiya tejamkor, innovatsion qurilish materiallari ishlab chiqarish hisobiga tannarxni pasaytirish choralari ko'rilmogda.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Usmonov Q. T., Xaydarov A. M. Yirik shaharlarda turar-joy maskanlari uchun xududlarni muhandislik tayyorgarlik va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish yo'llari //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1297-1304.

2. Mirzayev S., Xasanov F. BUXORO TURAR-JOY ME'MORCHILIGI AN'ANALARI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 488-492.